



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	



BADIIY MATN ASOSIDA NUTQIY KO'NIKMALAR VA IJODIY TAFAKKUR INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH METODIKASI

Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi
Navoiy davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matn asosida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalari va ijodiy tafakkurini integratsiyalashgan holda rivojlantirish metodikasi yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik, kognitiv va kommunikativ yondashuvlar asosida nutq faoliyatini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Taklif etilgan metodika o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, obrazli tafakkurini va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, nutqiy ko'nikma, ijodiy tafakkur, integratsiya, metodika, kognitiv yondashuv.

Abstract: This article examines a methodology for integrating speech skills and creative thinking through literary texts. Modern cognitive and communicative approaches are analyzed. The proposed method enhances independent thinking, figurative perception, and communicative competence.

Key words: literary text, speech skills, creative thinking, integration, methodology, cognitive approach.

Аннотация: В статье рассматривается методика интеграции речевых навыков и творческого мышления учащихся на основе художественного текста. Анализируются современные когнитивные и коммуникативные подходы. Предлагаемая методика способствует развитию самостоятельного мышления и речевой компетенции учащихся.

Ключевые слова: художественный текст, речевые навыки, творческое мышление, интеграция, методика, когнитивный подход.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nutqiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarida badiiy matnlar asosida ishlash bu jarayonning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matn o'zining obrazlilik, estetik ta'siri va ko'p qatlamli mazmuni bilan o'quvchini chuqur tafakkurga undaydi. Shu bois nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkurni integratsiyalash ta'lim jarayonining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tafakkur va nutq o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Shu bilan birga, bilimlarni bosqichma-bosqich egallash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy didaktik konsepsiyalarda integrativ yondashuv o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Xususan, konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilim o'quvchi tomonidan faol quriladi va bu jarayonda til hamda tafakkur o'zaro uyg'un holda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, badiiy matn o'quvchining kognitiv faoliyatini faollashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, metakognitiv yondashuvlar o'quvchining o'z fikrlash jarayonini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi ilmiy ishlarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish shaxsning umumiy intellektual taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Chunonchi, o'zbek metodist olimi B. To'xliyevning fikricha, "badiiy matn o'quvchining nafaqat nutqini, balki uning estetik didini, dunyoqarashini va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir" [2].

Til va tafakkur munosabatlari yuzasidan qilingan ishlardan ma'lumki, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish jarayoni ularning fikrlash operatsiyalarini chuqurlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, badiiy matn asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchining analitik va sintetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlarda badiiy matnning diskursiv va pragmatik imkoniyatlari ham alohida ta'kidlanmoqda.

Xususan, Teun A. van Dijk fikricha, matn faqat lingvistik birlik emas, balki ijtimoiy-kognitiv hodisa bo'lib, u orqali shaxsning dunyo haqidagi bilimlari shakllanadi. Shu bois badiiy matn ustida ishlash o'quvchining nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Bunga qo'shimcha qilib, Lev Vygotsky ta'lim jarayonida til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini asoslab, nutq orqali fikrlash rivojlanishini ta'kidlaydi: "har qanday yuqori psixik funksiya dastlab ijtimoiy shaklda yuzaga keladi" ^[1]. Bu esa badiiy matn asosida interfaol ishlash zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy matn asosida ta'lim berish masalasi ko'plab metodist olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, ularning ishlarida badiiy asar o'quvchining nutqiy va estetik rivojlanishida muhim omil ekanligi ta'kidlanadi ^[2].

Kognitiv yondashuvga ko'ra, til tafakkurning ifodasi bo'lib, insonning borliqni anglashida asosiy vosita hisoblanadi ^[3]. Shu sababli matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish zarur. Kognitiv tilshunoslik vakillari Lakoff va Langacker tilni inson tafakkurining modeli sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, badiiy matn konseptual tizimlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, metafora va obrazlar orqali bilim strukturalari boyitiladi. Shu bilan birga, Gardnerning ko'p intellekt nazariyasiga ko'ra, badiiy matn bilan ishlash lingvistik, intrapersonal va tasavvuriy intellektni birgalikda rivojlantiradi.

Kognitiv poetika yo'nalishida Peter Stockwell badiiy matn o'quvchi ongida shakllanuvchi mental modellarning mahsuli sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, o'quvchi matnni idrok etish jarayonida o'z tajribasiga tayangan holda yangi ma'nolarni konstruksiya qiladi ^[13].

Shu bilan birga, Michael Hallidayning funksional tilshunoslik nazariyasiga ko'ra, til uch asosiy funksiyani bajaradi: ideatsion, interpersonall va matnli. Badiiy matn aynan shu uch funksiyaning uyg'unlashgan shakli bo'lib, o'quvchilarda kompleks nutqiy kompetensiyani shakllantiradi ^[14].

O'zbek tilshunosligida ham badiiy matnning didaktik imkoniyatlari keng o'rganilgan. Jumladan, Sh. Safarov ta'kidlashicha, "til birliklari faqat kommunikativ vosita bo'lib qolmay, balki inson tafakkurining shakllanishida faol ishtirok etadi" ^[10]. Bu esa badiiy matn kognitiv faoliyatni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

N. Mahmudov esa "nutqiy kompetensiya faqat grammatik bilimlar bilan emas, balki matn bilan ishlash, uni tahlil qilish va qayta yaratish jarayonida shakllanadi", deb hisoblaydi ^[11]. Ushbu yondashuv badiiy matn asosida integrativ metodikani qo'llash zaruratini yanada asoslaydi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- kuzatish;
- tajriba-sinov;
- taqqoslash;
- tahlil va umumlashtirish.

Tadqiqotda badiiy matn asosida nutqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishning quyidagi bosqichli metodik modeli ishlab chiqildi:

1. **Perseptiv bosqich** - matnni idrok etish (o'qish, tinglash);
2. **Analitik bosqich** - mazmun va til vositalarini tahlil qilish;
3. **Interpretativ bosqich** - muallif g'oyasini talqin qilish;
4. **Produktiv bosqich** - yangi matn yaratish (ijodiy topshiriqlar);
5. **Refleksiv bosqich** - o'z faoliyatini baholash.

Mazkur model Benjamin Bloom taksonomiyasi hamda Jeromi Brunerning konstruktivistik yondashuvi asosida ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari ham hisobga olindi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchilarning bilimlari amaliy faoliyat jarayonida shakllanishi lozim. M. Abdullayev o'z ilmiy ishida aniqlashicha, "kompetensiya - bu o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini real kommunikativ vaziyatda qo'llay olish qobiliyatidir" ^[12]. Shuningdek, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nutqiy



faolligini oshiradi ^[4]. Badiiy matn orqali til o'rgatish esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi ^[6].

Bundan tashqari, tadqiqotda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv (activity-based approach) va integrativ didaktika tamoyillaridan foydalanildi. Bu yondashuvlar o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol ijodkor subyektga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, badiiy matn asosida tashkil etilgan integrativ mashg'ulotlar yuqori samaradorlikka ega.

Natijada:

- o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi rivojlandi;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllandi;
- ijodiy tafakkur faollashdi;
- muloqot kompetensiyasi oshdi.

Quyidagi mashqlar ayniqsa yuqori natija ko'rsatdi:

- matnni davom ettirish;
- qahramon nomidan hikoya yozish;
- alternativ yakun yaratish;
- dialog va monolog tuzish.

Bu faoliyatlar o'quvchilarning tafakkur jarayonini faollashtiradi ^[4]. Tajriba yakuni shuni ham ko'rsatdiki, badiiy matn asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning refleksiv fikrlashini rivojlantiradi. Ya'ni, ular o'z fikrlarini tahlil qilish, baholash va qayta ko'rib chiqish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydi. Bu esa yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarining shakllanganligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari - tahlil, sintez va baholash ko'nikmalarining rivojlanganligini ko'rsatdi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat reproduktiv, balki produktiv fikrlashga o'tganligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda, tajriba natijalari John Deweyning "learning by doing" tamoyilini tasdiqladi. Ya'ni, o'quvchilar faol ijodiy jarayonga jalb etilganda ularning bilimlari yanada mustahkam va barqaror bo'ladi ^[15].

So'nggi natijalar integrativ yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi. An'anaviy metodlardan farqli ravishda, bunda o'quvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Badiiy matn asosida ishlash o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki kognitiv va estetik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi ^[3].

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy ishlarda badiiy matn bilan ishlash jarayoni multimodal yondashuv asosida ham kengaytirilmoqda. Gunther Kress fikricha, matn faqat verbal shaklda emas, balki vizual va audial komponentlar orqali ham idrok etiladi. Bu esa o'quvchilarning kognitiv faoliyatini yanada faollashtiradi ^[16].

Tadqiqot natijalari Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasini tasdiqlaydi. Ya'ni, o'quvchilar badiiy matn bilan ishlash jarayonida o'qituvchi va tengdoshlar yordamida yuqori darajadagi nutqiy va tafakkuriy faoliyatni amalga oshira oladi. Shu bilan bir qatorda, interfaol metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning motivatsiyasi va refleksiv fikrlash darajasi ham sezilarli darajada oshadi. Qo'shimcha ravishda, badiiy matn asosida o'qitish o'quvchilarning emotsional-intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki badiiy asar orqali o'quvchi obrazlar, voqealar va hissiy holatlarni boshdan kechiradi. Bu esa uning empatiya, tasavvur va estetik idrok kabi sifatlarini rivojlantiradi.

XULOSA

Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkurni integratsiyalash metodikasi samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Mazkur metodika o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini ham faollashtiradi. Shu bois, ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy matn asosida integrativ yondashuvni qo'llash o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilib, ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Kelgusida mazkur metodikani raqamli ta'lim muhitida qo'llash, multimodal matnlar asosida integratsiyani kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ-bosqichli metodik modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978. – 89-90 b.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 25-30 b.
3. Bruner J. Acts of Meaning. Harvard University Press, 1990. – 11-18 b.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2001. – 153-160 b.
5. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longmans, 1956. – 20-24 b.
6. Lazar G. Literature and Language Teaching. Cambridge University Press, 1993. – 15-22 b.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 68-70 b.
8. Langacker R.W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford University Press, 2008. – 10 b.
9. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York, 1983. – 80 b.
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent, 2006. – 45-50 b.
11. Mahmudov N. Til va nutq. Toshkent, 2012. – 110-115 b.
12. Abdullayev M. Pedagogik kompetensiya asoslari. Toshkent, 2018. – 60-65 b.
13. Stockwell P. Cognitive Poetics. Routledge, 2002. – 48 b.
14. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. London, 1994. – 38-40 b.
15. Dewey J. Experience and Education. New York, 1938. – 100 b.
16. Kress G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. London, 2010. – 104 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.